

PYTHON DASTURLASH TILIDA MATEMATIK FUNKSIYALARNI KENGAYTIRUVCHI MATH MODULI BILAN ISHLASH

Toshpo’latov Hamdam Bekmuhammadovich
Jizzax Davlat pedagogika universiteti
Informatika va raqamli ta’lim
texnologiyalari kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada python dasturlash tili va bu dasturlash tilining math moduli, uning bir qator funksiyalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: python, dastur, dasturlash tili, modul, math, cos, sin, tan, log, math.pi.

Bugun hayotimizni turli kompyuterlar, truli xil gadjetlar va ulardagi ilova dasturlarisiz tasavvur qilish muammoga aylanib ulgurdi. Ana shu ilova dasturlari esa siz va bizga o’xshagan insonlar dasturchilar tomonidan tuziladi. Bugun qaysiki jamiyat, mamlakat taraqqiyot bo’lishini, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti yuksalishini istasa dasturchilik sohasini rivojlantirishga, o’zining kuchli dasturchi mutaxassislarini tayyorlashiga to’g’ri keladi.

Mamlakatimizda ham bu boradagi ishlar jadal sur’atlarda olib borilmoqda bunga misol qilib “One million uzbek coders” loyihasini, har bir viloyatda IT PARK larning va har bir tumanda IT Markazlarning tashkil etilganligini misol qilishimiz mumkin.

Python dasturlash tili o’rganishga qulayligi va boy kutubxonalar bazasiga egaligi uchun bugun dasturchilar tomonidan juda ko’p foydalaniladi.

Python dasturlash tilida matematik funksiyalar ro’yxatini kengaytirish uchun **math** modulini ulash kerak bo’ladi.

Buning uchun dasturimizning boshiga:

import math

buyrug’ini kiritishimiz kerak.

Matematik modulni import qilganingizdan so’ng, modulning fuksiyalari va konstantalaridan foydalanishni boshlashingiz mumkin.

Masalan, **math.sqrt()** funksiyasi sonning kvadrat ildizini qaytaradi:

```
import math
```

```
x = math.sqrt(64)
```

```
print(x) #8.0
```

math.ceil() funksiyasi sonni eng yaqin katta butun songa yaxlitlaydi, **math.floor()** funksiyasi esa eng yaqin kichkina butun songa yaxlitlaydi va natijani qaytaradi:

```
import math
```

```
x = math.ceil(1.4)
```

```
y = math.floor(1.4)
```

```
print(x) # 2
```

```
print(y) # 1
```

math.pi doimiysi PI qiymatini qaytaradi (3.14...):

```
import math
```

```
x = math.pi
```

```
print(x) # 3.141592653589793
```

math modulida mavjud bo’lgan boshqa fuksiyalarnig kengaytirilgan jadvalii keltiramiz.

Funksiya	Izoh
acos()	soning arccosinusini qaytaradi
asin()	soning arcsinusini qaytaradi
atan()	soning arctangensini qaytaradi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

cos()	Sonning kosininusini qaytaradi
sin()	Sonning sinusini qaytaradi
tan()	Sonning tangensii qaytaradi
degrees()	Rianda berilgan burchakni, gradusda qaytaradi
radians()	Gradusda berilgan burchakning radianda qaytaradi
exp()	e^x ni qaytaradi
fabs()	Sonig absolyut qiymatini qaytaradi
factorial()	Sonning faktorialini qaytaradi
fmod()	Qoldiqli bo‘lish
gcd()	Eng katta umumiy bo‘luvchii topadi
sqrt()	Sonning kvadrat ildizini qaytaradi
isqrt()	Sonning kvadrat ildizining butu qismini qaytaradi
log()	Natural logarifmni qaytaradi <i>ln</i>
log10()	10 asosli logarifmni xisoblaydi <i>lg</i>
log1p()	1+x sonining natural logarifmini xisoblaydi
log2()	2 asosli logarifmni xisoblaydi
pow()	x ning y- darajasini xisoblaydi
remainder()	Qoldiqni xisoblaydi. Bunda bo‘luvchi ham, bo‘linuvchi ham haqiqy son bo‘lishi mumkin va goldiq ham haqiqiy son bo‘ladi
trunc()	Sonning butu qismini xisoblaydi
ceil()	sonni eng yaqin katta butun songa yaxlitlaydi
floor()	sonni eng yaqin kichik butun songa yaxlitlaydi

-acos(x)

```
import math
```

```
print(math.acos(0.55)) # 0.9884320889261531
print(math.acos(-0.55)) # 2.15316056466364
print(math.acos(0)) # 1.5707963267948966
print(math.acos(1)) # 0.0
print(math.acos(-1)) # 3.141592653589793
```

sin(x)

```
import math
```

```
print (math.sin(0.00)) # 0.0
print (math.sin(-1.23)) # -0.9424888019316975
print (math.sin(10)) # -0.5440211108893698
print (math.sin(math.pi)) # 1.2246467991473532e-16
print (math.sin(math.pi/2)) # 1.0
```

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

degrees(x)

```
import math
```

```
print (math.degrees(8.90)) # 509.9324376664327
print (math.degrees(-20)) # -1145.9155902616465
print (math.degrees(1)) # 57.29577951308232
print (math.degrees(90)) # 5156.620156177409
```

radians(x)

```
import math
```

```
print(math.radians(180)) # 3.141592653589793
print(math.radians(100.03)) # 1.7458528507699278
print(math.radians(-20)) # -0.3490658503988659
```

python dasturlash tilida trigonometrik funskiyalar berilgan qiymatlarni radian deb qabul qiladi. Biz burchakni gradusda berishimiz uchun ***radians()*** fuksiyasidan foydalanib berishimiz kerak. Masalan $\cos(30^\circ)$ ni xisoblash uchun dastur quyidagicha bo’ladi:

```
import math
```

```
print(math.cos(30)) #0.15425144988758405
print(math.cos(math.radians(30))) #0.8660254037844387
print(3**(1/2)/2) # 0.8660254037844386
```

factorial(n)

```
import math
```

```
print(math.factorial(0)) #1
print(math.factorial(1)) #1
print(math.factorial(3)) #6
print(math.factorial(5)) #120
print(math.factorial(10)) # 3628800
```

fmod(a, b)

```
import math
```

```
print(math.fmod(20, 4)) # 0.0
print(math.fmod(20, 3)) # 2.0
print(math.fmod(15, 6)) # 3.0
print(math.fmod(-10, 3)) # -1.0
print(math.fmod(0, 0)) # xatolik. 0 ga bo‘lish mumkin emas
```

gcd(a, b)

```
import math
```

```
print (math.gcd(3, 6)) #3
print (math.gcd(60, 8)) #4
print (math.gcd(12, 36)) #12
print (math.gcd(-12, -36)) #12
```

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

```
print (math.gcd(5, 12)) #1  
print (math.gcd(10, 0)) #10  
print (math.gcd(0, 34)) #34  
print (math.gcd(0, 0)) #0
```

remainder(a, b)

```
import math
```

```
print (math.remainder(9, 2)) # 1.0  
print (math.remainder(9, 3)) # 0.0  
print (math.remainder(18, 4)) # 2.0
```

```
print (math.remainder(23.5, 5)) # -1.5  
print (math.remainder(23, 5.5)) # 1.0  
print (math.remainder(12.5, 2.5)) # 0.0  
print (math.remainder(12, 2)) # 0.0
```

trunc(a)

```
import math
```

```
print(math.trunc(2.77)) # 2  
print(math.trunc(8.32)) # 8  
print(math.trunc(-99.29)) # -99
```

Matematik konstantalar

Nomi	Izoh
math.e	Eyler raqamini qaytaradi (2,7182...)
math.pi	PI qaytaradi (3.1415...)

Bu yerda `math` modulini ulagandan keyin modulning funksiyalariga ***math.funksiya_nomi()*** kabi murojaat qilish biroz noqulay bo‘lsa modulni ulagaimizdan so‘ng unga o‘zimizga qulay bo‘lgan belgilash kiritib olishimiz mumkin bo‘ladi. Buning uchun ***as*** xizmatchi so‘zidan foydalanamiz. Masalan, quyidagi misolda ***math*** modulini ulab unga ***m*** deb belgilash kiritib olamiz:

```
import math as m  
print(m.trunc(7.25)) #7
```

Ko‘rib turganingizdek ***m.trunc()*** deb funksiyaga murojaat qilish ***math.trunc()*** deb murojaat qilishdan ancha qulay.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tashpulatov H. B. Peculiarities of using mental map in the process of forming algorithmic thinking in the process of teaching future teachers in mathematics and computer science //Thematics Journal of Education. – 2022. – T. 7. – №. 5.

2. Tashpulatov X. Объектно-ориентированное программирование как эффективное средство развития алгоритмического мышления студентов //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – С. 2268-2275.